



DEVELOPMENT STAGES OF THE OUT-OF-SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Bahodir Shirinboyevich Khalilov

Lecturer at Navoi State Mining and Technologies University
Navoiy, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: out-of-school education, well-rounded generation, free upbringing, education, STEM, artificial intelligence, upbringing, adolescent.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: This article reflects on the development of the out-of-school education system in the Republic of Uzbekistan. The stages of development of this education system are distinguished and researched according to a chronological overview. The article also provides information about the various forms or types of out-of-school education present in Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TIZIMI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Bahodir Shirinboyevich Xalilov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi
Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: maktabdan tashqari ta'lim, barkamol avlod, ozod tarbiya, ta'lim, STEM, sun'iy intellekt, tarbiya, o'smir.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim tizimi taraqqiyoti haqida mulohaza yuritiladi. Bunda ushbu ta'lim tizimining taraqqiyot bosqichlari ajratib olinib yillar sarhisobi bo'yicha tadqiq etilgan. O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim tizimining qanday ko'rinishlari yoki shakllari borligi haqida ham ushbu maqoladan bilib olish mumkin.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ВНЕШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Баходир Ширинбоевич Халилов

*Преподаватель Навоийского государственного горно-технологического университета
Навоий, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	внешкольное образование, гармоничное поколение, свободное воспитание, STEM, искусственный интеллект, воспитание, подросток.	Аннотация:	В данной статье рассматривается развитие системы внешнего образования в Республике Узбекистан. Выделены этапы развития этой системы и проведено исследование с хронологическим обзором. Также в статье приводится информация о различных формах и видах внешнего образования, существующих в Узбекистане.
------------------------	---	-------------------	---

Ta'lim tarixi bo'yicha mutaxassislarning ta'kidlashicha, o'rta asrlar davri ta'limining institutsional rasmiylashuvi tarixida o'lkaga islom dinining tarqalishi va mahalliy xalqning turmush tarziga singib ketishi eng muhim omil sanaladi. Bu davrda musulmon madaniy identikligining shakllanishida ta'lim institut sifatida muayyan ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan O'zbekiston hududida islom dini falsafiy-nazariy yo'nalishga ega bo'lib, xalq ta'limining o'ziga xos rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida keng tarqalgan boshlang'ich maktablar va oliy ta'lim muassasasi – madrasalar ko'rinishidagi ta'lim tizimining tashkiliy tuzulmasida namoyon bo'ldi. Ta'lim jarayonining bunday shakli uzoq davr mobaynida o'z samaradorligini saqlab qoldi. Buning isbotini dunyoviy fanlar sohasida ilmiy maktablarning vujudga kelishi, jahon ilmiga buyuk olim va matafakkirlarni yetkazib berganligida ko'rish mumkin. Shu bilan birga, ta'lim tarkibiga nafaqat institutsional tuzulmalarga ega muassasalar, balki tizimli xarakterga ega bo'lmagan, ammo diniy va dunyoviy bilimlarning boshlang'ich ma'lumoti gramatika asoslari va kundalik etikasi bilan tanishtiruvchi "uy ta'limi"ning keng tarmog'i ham kirgan". Demak ko'rinib turibdiki, Sharq ta'limida maktabdan tashqari ta'limning o'rni muhim bo'lgan.

Shundan so'ng, XVI-XVII asrlarda Yevropa va AQSh jamiyatida yangi to'liqindagi xalq ta'limini rivojlantirish harakatlari boshlandi. Shunga asosan, bu davrda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan bepul va majburiy maktab ta'limi paydo bo'ldi. Ta'limga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi ommaviy kutubxonalar tizimining yaartilishi va rivojlanishiga turtki bo'lid. Shu asosida kutubxonalar maktabdan tashqari ta'lim va bilim tarqatishning muhim markazlariga aylandi. Ular kitoblar va boshqa resurslardan foydalanish imkonini berib, odamlarning o'zini o'zi rivojlantirishiga yordam berdi. O'z navbatida XX asr boshlarida

Turkiston o'lkasining viloyat va shaharlarida ham jamoatchilik yoki mahalliy ma'muriyat tomonidan tuzilgan kutubxonalar va o'quv xonalari tashkil etila boshlandi .

XVIII-XIX asrlarga kelib sanoat inqilobi davrida texnik bilimlarga bo'lgan talab ortib, maktablardan farqli ravishda texnik maktablar va kollejlari tashkil etildi. Biroq bu davrda Turkiston zaminida ta'lim zamondan ancha ortda qolgan, maktab ta'limida faqat diniy fanlarga urg'u berilgan, dunyoviy fanlarni o'qitish juda sust, maktab binolari yo'q, shuningdek, ta'lim an'naviy tarzda ko'pincha savodli kishilarning uyida olib borilar edi. Maktablarda yagona tasdiqlangan darslik, o'quv reja va qo'llanmalar haqida gap ham bo'lmagan, shuningdek, o'qish muddatlari ham turlicha edi. Buxorolik tarixchi olimi F.Bobojonovanning yozishicha, "an'anaviy maktablarga boylarning bolasi muntazam qatnab, o'qish va yozishni xam o'rganib olgan. Ammo ko'p kambag'al oilalarning bolalari maktabga vaqtida qatnay olmay, xat-savodsiz qolib ketgan" . Maktabga qatnay olmagan bolalar tabiiyki o'z uyida yoki biror usta, dehqon qo'lida kasb-hunar o'rganishgan. Ularning juda ozchilik qismi mustaqil ta'lim olgan. Demak bu vaqtda iqtisodiy sharoit maktabdan tashqari ta'lim olishga majbur qilgan. Maktabdan tashqari ta'limning bu ko'rinishi tabiiyki institutsionallashtirmagan edi. Shuning uchun ham bu jarayon keyinchalik jadid marifatparvarlarining ta'lim to'g'risidagi qarashlarida yanada takomillashib bordi.

Jadid taraqqiyparvarlari Turkistonda ta'lim tizimini takomillashtirish, dunyoviy maktablar faoliyatini yo'lga qo'yish, maorof sohasini yuksaltirish bilan birga ta'limning turli shakllarini ham taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jumladan, tarix fanlari doktori, professor N. Mustafayevaning ta'kidlashicha, "bu davr mualliflari maorif tizimini tubdan o'zgartirishda «maktab ila turmushni birlashtiruv, hunar o'rganmoq, o'quvchilarga hurriyat tahsili bermoq» lozimligini qayta-qayta ta'kidlab o'tadilar. Erkin fikrlovchi shaxslarni kamol toptirishda, eng avvalo maktab tizimida yangicha tarbiya usullarini joriy etish, uning rivojlanish yo'llari haqida turli fikr-mulohazalar bildirildi. Masalan, H.H. Niyoziy maktablarda ozod tarbiyani yo'lga qo'yish taklifi bilan chiqadi va o'qitish usulida "bolalarning o'zlari istab topib, o'zi chalib, o'zi o'rganib, o'zi turmushga tatbiq etadir. Muallim faqat yo'l ko'rsatuvchi o'rnini oladir. Ozod tarbiya bolalarni turmushga o'rgatadi, deb hisoblaydi. S.Uyg'ur esa bolalarni yolg'iz maktab darsi bilan qanoatlanib qolmasdan, turmushga chuqurroq kirib ijtimoiy hayotga yaralishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. U: «...hayotni o'zgartirish uchun yolg'iz bilimnigina taraqqiy ettirish kifoya qilmaydi. Balki bolalarning o'zlari ochiqdan-ochiq amaliy ishlab haqiqiy ish bilan ishtirok etishlari lozim. Shahar, qishloq maktablari o'z muhit atroflariga usul tarbiyasiga qarab turmush tilagiga muvofiq programma tuzilishi kerak», deb yozadi . Ko'rinib turibdiki, jadidlar "yolg'iz maktab darsi bilan qanoatlanib qolmasdan" nafaqat maktab balki, bolalar va o'quvchilar maktabdan tashqari ham o'z ustilarida ishlari lozimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, bu

ya'ni maktabdan tashqari ta'lim ularni "hayotni o'zgartirish uchun" yo'naltiradi hamda "ozod tarbiya bolalarni turmushga o'rgatadi".

1947 yil O'zSSR ministarlar Soveti "Bolalar badiiy havskorlik, texnika ijodkorligi va tabiatshunoslik ishlarini rivojlantirish bo'yicha tadbirlari haqida" Qaror qabul qildi. Mazkur qarorga asosan O'zbekiston SSRning turli hududlarida pionerlar uylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar stansiyalari, badiiy havskorlik, texnika, biologiya, yog'och o'ymakorlik kabi maktabdan tashqari to'g'araklar tashkil etildi. 1949 yilga kelib, Respublikada 58 ta Yosh texniklar stansiyasi, 2 ta ekskursion turistik stansiya, 4 ta bolalar badiiy tarbiya uyi, 16 ta pionerlar saroyi va uylari, 5 ta bolalar stadioni, 10 tasport maktablari, 4 ta bolalar klubi, 3ta bolalar xiyoboni majud edi. Madaniyat vazirligi ixtiyorida Bolalar qo'g'irchoq teatri, Bolalar musiqa maktabi, klublar faoliyat olib borar edi.

XX asrning 70-yillarda bolalar maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarmog'i hamkorligida ommaviy sport musobaqalari tashkil etila boshladi. Xususan, 1975 yil sportning 11 turi bo'yicha 160 ming bolalar va o'smirlar o'zaro bahslashishdi. 1975-1976 o'quv yilda Respublikada 210 ta musiqa maktablari mavjud bo'lib, ularda 53 300 nafar bolalar maktabdan tashqari ravishda ta'lim olishar edi. Bu yillarda Respublikadagi 50-60 ta maktabga sharta hisobda 4-5 matkabdan tashqari ta'lim muassasalari to'g'ri kelar edi. Xususan, 1970 yili Respublikada 2131 ta maktabdan tashqari bolalar muassasalari bo'lib, ulardan 151 tasi Pioner uylari va saroylari, 26 tasi Yosh texniklar stansiyasi, 17 tasi Yosh tabiatshunoslik stansiyasi, 13 tasi Yosh turistlar stansiyasi, 5 tasi Bolalar xiyonboni, 1256 tasi Yozgi pionerlar lagerlari, 159 ta Bolalar musiqa va san'at maktablari, 166 tasi Bolalar sport maktabi, 258 tasi Bolalar kutubxonasi va 120 tasi boshqa turdagi bolalar maktabdan tashqari muassasalarini tashkil etgan.

1980 yillarga kelib Respublikada maktabdan tashqari bolalar muassasalari soni oshib bordi. Shu bilan birga ularning faoliyat yo'nalishlari ham turli xil ko'rinishda takomillashib bordi. Mustaqillikdan bir yil avval, ya'ni 1990 yilga kelib O'zbekistonda 6064 ta turli maktabdan tashqari bolalar muassasalari bo'lib, ulardan 266 tasi Pioner uylari va saroylari, 134 tasi Yosh texniklar stansiyasi, 119 tasi Yosh tabiatshunoslik stansiyasi, 36 tasi Yosh turistlar stansiyasi, 8 tasi Bolalar xiyonboni, 3880 tasi Yozgi pionerlar lagerlari, 305 ta Bolalar musiqa va san'at maktablari, 485 tasi Bolalar sport maktabi, 501 tasi Bolalar kutubxonasi va 341 tasi boshqa turdagi bolalar maktabdan tashqari muassasalarini tashkil etgan.

O'zbekiston mustaqillik yillarida ta'lim sohasida tizimli va tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Ta'limning barcha shakllari va bosqichlarida yangi, jahon standartlariga javob beradigan andozalarni jalb qilishga va ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilishga ahamiyat qaratildi. Xususan, mutaxassislarning ta'kidlashicha, "umumiy o'rta ta'limning barcha uchun

majburiylik va bepullik ta'lim tizimidagi asosiy yutuqlardan biri bo'ldi. Ta'lim yo'nalishlari va xususiyatlaridan kelib chiqib zamonaviy ko'rinishlarda maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar, oliy ta'lim sohalarida rivojlantirildi. Shunga asosan yangi ta'lim binolari qurildi, respublika va viloyatlarda ta'lim maskanlari soni ortib bordi. Ayniqsa, o'rta maktablar va u yerda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni tez sur'atlarda o'sdi. Maktablar sonining ortishi maktab yoshidagi bolalarni o'rta ta'limga to'liq qamrab olish imkoniyatini yaratdi". Maktab yoshidagi o'quvchilarni maktabda olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, ularning fan, ijodiy va kasbiy mahoratni yanada oshirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim tizimi ham bir vaqtning o'zida yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim tizimini ikki yirik bosqichda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich – 1991-2016 yillar. Tabiiyki, maktabdan tashqari ta'lim mustaqillikning ilk yillarida sovet davri ta'limi tizimi asosida yo'lga qo'yildi. Jumladan, 90-yillar boshida sobiq sovet respublikalari va sotsialistik davlatlarda yuzaga kelgan ta'lim modeli birinchi bosqichda ko'proq sovet modeli erishgan natijalarni saqlab turdi. Chunki, Aholining barcha qatlamining boshlang'ich va o'rta ta'limdan bepul foydalanishini ta'minlash, ta'limning barcha darajasida ta'lim dasturlarining asosiligi va texnik yo'naltirilganligi ushbu modelning ijobiy tomonlaridan hisoblanadi. Shundan so'ng barcha sobiq respublikalar qatori O'zbekiston ham ta'lim tizimining milliy modelini ishlab chiqarishni boshladi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi quyidagi turlarini qamrab oldi:

maktabgacha ta'lim (3 yoshdan 6–7 yoshgacha) - bolalar bog'chalarini o'z ichiga olgan holda davlat, xususiy hamda davlat-xususiy sherikchilik muassasalarini takshil etadi;

umumiy o'rta ta'lim (6–7 yoshdan 14–16, 18 yoshgacha) – majburiy bepul holda davlat va xususiy umumta'lim maktablarini tashkil etadi;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (14–16 yoshdan 16–18 yoshgacha) – bepul va pullik xizmat ko'rsatadigan davlat kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari;

oliy ta'lim (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tamomlagach) - universitetlar, akademiyalar va institutlarni tashkil etib, davlat, xususiy, davlat-xususiy sherikchilik asosida grant va to'lov shartnoma asosida tahsil olish;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim – (aspirantura) starjyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura instituti.

kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish (mehnat faoliyati davomida) - universitetlar, institutlar, sohalarining ixtisoslashgan malaka oshirish institutlari;

maktabdan tashqari ta'lim (maktabda o'qish davomida) - mustaqil va maktab qoshidagi to'garaklar, klublar, kutubxonalar va boshlqarni tashkil etadi.

BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan 2007-2008 yillarda tayyorlangan "O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibligi" deb nomlangan Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruzada ta'kidlanishicha, "MDH mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda ta'lim darajasi ko'rsatkichi juda yuqori. Buning ustiga Hamdo'stlik mamlakatlarining barchasida bu ko'rsatkich kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichidan ham yuqori. O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. O'zbekistonda ta'lim ko'rsatkichi 0,998 ni tashkil etsa, ayni paytda dunyoda bu ko'rsatkich 0,77 ni tashkil qiladi. O'zbekiston ta'lim ko'rsatkichi bo'yicha Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiradigan Malta (0,86), Ruminiya (0,90), Xorvatiya (0,90), Markaziy Amerikaning sanoati eng rivojlangan mamlakati Kosta-Rika (0,87) va Xitoy Gonkongidan (0,88) oldinda. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston neft hisobidan boyib ketgan Baxrayn va Bruney (0,88), Quvayt (0,87), Qatar (0,86), BAA (0,71), shuningdek, iqtisodiy va texnik rivojlanish sohasida katta muvaffaqiyatga erishgan Meksika (0,86) va Malayziyadan (0,84) oldinda" deb ta'kidlangan. Biroq, ko'rinib turibdiki, keyingi yillardagi ta'lim taraqqiyoti bo'yicha bu mamlakatlardan Quvayt, Malayziya, Qatar, Bruney kabi mamlakatlar jahonning ilg'or mamlakatlariga aylanib bormoqda. Demak, ta'lim islohotlarining ijobiy samarasi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotining kafolati va xalqaro nufuzi ortishining asosidir. Bu borada maktabdan tashqari ta'limning ham o'z o'rni va hissasi bor. Chunki, maktabdan tashqari ta'lim o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamladi, rivojlantirdi va ma'lum bir sohaga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunga asosan O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'limning asoslari shakllantirila boshladi. Dastlab mustaqillikning ilk yillarida maktabdan tashqari ta'lim sodda va oddiy ko'rinishda maktablarda sport va ijodiy to'garaklar shaklida tashkil etilgan bo'lsa, keyinroq 1997 yildan keyin ularning ham faoliyati va turlari asta-sekin kengayib bora boshladi. Bu albatta mamlakatda 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bilan bog'liq edi. Jumladan, Xalq ta'limi tizimida 584 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda 200 dan ortiq yo'nalishlari to'garaklar faoliyat ko'rsatdi. Bu to'garaklarga 1997-1998 o'quv yilida 449.581 nafar o'quvchi (8,3%), 1998-1999 o'quv yilida 473.617 nafar o'quvchi (8,6%), 1999-2000 o'quv yilida esa 504.885 nafar o'quvchi (8,7%) jalb etildi .

Biroq bu davrda ham maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatida kadrlar va moddiy texnik bazaning yetishmasligi, o'quv rejalaridagi nomuvofiqlik, ta'lim sifatining pastligi, o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'limga qiziqishining sutsligi va ularning yetarli darajada

qamrab olinmaganligi kabi bir qator muammolar mavjud edi. Chunki, dastlab maktablarda tashkil etilgan fan va sport to'g'araklarini tashkil etuvchi va o'tkazuvchi o'qituvchi-pedagoglarga maktab soatlariga nisbatan kam maosh to'lanar edi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning maktab to'g'araklarini tashkil etish va o'tkazishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirardi. O'z navbatida, o'quvchi-yoshlarning ham maktabdan tashqari ta'limga qiziqishlari juda sust ahvolda edi.

Shuningdek, respublikada maktabdan tashqari ta'lim asosan shahar va tuman markazlarida tashkil etilgan bo'lib, markazlardan olis hududlarda deyarli ular faoliyat ko'rsatishmagan. Jumladan, 2002-2003 o'quv yilida O'zbekistonda 621 maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi; ularda 200 dan ortiq maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishi bo'yicha 33 mingdan ziyod turli to'g'arak, klub, seksiya, studiya, ansambl va b. ijodiy uyushmalar tashkil etilgan. 2002/2003 o'quv yili boshida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar 715 ming o'quvchini tashkil etdi. Ko'rinib, turibdiki, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari respublikadagi o'quvchilar ehtiyojini to'liq qoplamaydi.

O'zbekiston hukumati bolalar va o'smirlarning qo'shimcha ta'lim olishini rivojlantirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim, jumladan bolalar o'smirlar sportini, ayniqsa qishloq joylarida rivojlantirishga oid qator kompleks dasturlarni qabul qildi. Ushbu dasturlarda qimmatga tushadigan sport inshootlarini talab qilmaydigan sport turlariga ustuvor ahamiyat berilgan. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari, yetim va nogiron bolalarning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun shart sharoit yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Hukumat dasturlarida barcha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hududida sport maydonchalari va katta mablag' talab qilmaydigan inshootlari qurilishini rivojlantirish ham ko'zda tutilgan.

2006 yilda 1,4 mingta bolalar sporti va maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim muassasalari 1–9 sinf maktab o'quvchilarining 18.7 foizdan ortig'ini qamrab oldi. Umumiy ta'lim maktablarida turli ixtisos va nomdagi 122 mingtadan ortiq to'g'arak va seksiyalar tashkil etilgan. Ularda 2,4 million nafardan ortiq o'quvchi (38%) qo'shimcha ta'lim olmoqda.

Ikkinchi bosqich – 2017 yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichga kelib O'zbekistonda ta'lim tizimi, xususan maktabdan tashqari ta'lim sohasida yangi tendensiyalar vujudga keldi. Mazkur bosqichda maktabdan tashqari ta'lim tizimida yangi tendensiyalar amalga oshirila boshladi. Xususan, eng yangi talablardan kelib chiqqan holda maktab o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatuvchi o'quv dasturlar, qo'llanma va ko'rgazmali vositalar, elektron formatdagi dasturiy loyihalar, onlayn kurslar yaratila boshladi. Ta'lim muassasalarining bo'sh turgan bino va yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish uchun davlat xususiy sheriklik shartlari asosida maqsadli

loyihalarni juladan, “Bolalar texnoparki” loyihalari tashkil etila boshladi. “Barkamol avlod” bolalar markazlarida xususiy korxona, tashkilotlar bilan birgalikda davlat xususiy sherikchilik asosida to‘garaklar tashkil etish hamda bu orqali AKT sinflari, robototexnika, sun’iy intellekt va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha loyihalar amalga oshirila boshladi.

Ta’kidlash kerakki, Respublikamizda tashkil etilgan 211 ta “Barkamol avlod” bolalar markazlaridagi texnik, badiiy ijodiyot, o‘lkashunoslik va ekologiya yo‘nalishlaridagi 5 mingga yaqin to‘garaklarda 114 mingdan ortiq o‘quvchi-yoshlarga qiziqishlari bo‘yicha boshlang‘ich kasb-hunar sirlari o‘rgatilmoqda. Shuningdek, umumta’lim maktablarida tashkil etilgan 150 mingdan ortiq fan to‘garaklariga 2,8 mln. nafar o‘quvchilar jalb qilingan.

Maktabdan tashqari ta’lim quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi.

1. Madaniy-estetik yo‘nalish – ma’naviy-ma’rifiy turkum, tasviriy san’at turkumi, xalq amaliy san’ati turkumi, dizayn turkumi, musiqa ta’limi turkumi, xoreografiya (raqs san’ati) turkumi, teatr san’ati turkumi, pazandachilik va qandolatchilik turkumi;

2. Ilmiy yo‘nalish - fan nazariyalari va ularning ilmiy asoslari, fanlarning rivojlanishida hissa qo‘shgan buyuk vatandoshlarimiz va jahon mutafakkirlari, mohir kasb-hunar egasi va mutaxassis bo‘lib yetishishida fanlarning o‘rni va ularning o‘zaro bog‘liqligi, fan asoslari bo‘yicha olgan qo‘shimcha bilimlaridan amaliyotda foydalana olish, chet tillaridagi so‘z va iboralarni to‘g‘ri o‘qish, talaffuz qilish, yozish va tushunish, ayrim mavzular bo‘yicha erkin muloqot qilish, grammatika va punktuatsiya qoidalariga amal qilgan holda gaplar tuzish.

3. Texnik yo‘nalish – boshlang‘ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash turkumi, avtomatika va elektronika turkumi, texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari turkumi.

4. Sport yo‘nalishi – jismoniy mehnat, jismoniy mashg‘ulot va sportning inson organizmiga ta’siri, o‘zini o‘zi jismoniy va tibbiy jihatdan nazorat qilish, jismoniy tarbiya va sport haqidagi tushunchalar, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida ommaviylikni oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar, sport turlari va ularning farqi, sport turlari bo‘yicha Olimpiada o‘yinlari, jahon va xalqaro turnirlarning sovrindorlari bo‘lgan milliy sportchilar va ularning erishgan yutuqlari, o‘zi shug‘ullanayotgan sport turining kelib chiqish tarixi va uning ahamiyati, o‘zi shug‘ullanayotgan sport turining qoidalar, jismoniy mashqlar va usullar, sport turlari bo‘yicha xalqaro federatsiya va assotsiatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi qoidalar, xalqaro sport musobaqalari.

5. Tajriba-naturalistik yo‘nalishi – ekologiya va salomatlik turkumi, o‘simlikshunoslik (flora) turkumi, hayvonotshunoslik (fauna) turkumi.

6. Sayyohlik-o‘lkashunoslik yo‘nalishi - sayyohlik turkumi, o‘lkashunoslik turkumi.

O‘z navbatida har bir yo‘nalishdagi kichik yo‘nalishlar ham alohida turkum yo‘nalishlarga bo‘linib ketadi. Shuningdek, 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun to‘garak mashg‘ulotlari haftalik va yillik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha haftalik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi o‘quv yilida 4 akademik soatni, keyingi o‘quv yillarida 6 akademik soatni tashkil etadi. Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha yillik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi o‘quv yilida 144 akademik soatni, keyingi o‘quv yillarida 216 akademik soatni tashkil etadi. Sayyohlik-o‘lkashunoslik yo‘nalishi bo‘yicha haftalik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi va keyingi o‘quv yillarida 6 akademik soatni, yillik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi va keyingi o‘quv yillarida 216 akademik soatni tashkil etadi. 6 yoshdagi bolalar uchun to‘garak mashg‘ulotlari 35 daqiqa davomida o‘tkaziladi va u haftada 2 akademik soatdan, bir o‘quv yilida 72 akademik soatdan oshmasligi belgilab qo‘yilgan.

2017 yildan keyin O‘zbekistonda maktabdan tashqari ta‘lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimidagi maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bu borada muhim qadamlardan bir bo‘ldi. Ushbu qarorga asosan maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini yanada oshirish, o‘quvchi yoshlarda yuksak ma‘naviy fazilatlarni kamol toptirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kasb-hunarga yo‘naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, intellektual barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida “Barkamol avlod” bolalar maktablari”, “Bolalar kutubxonalari”, “Bolalar sayyohlik bazalari”ni tashkil etish yo‘lga qo‘yildi.

“Bolalar sayyohlik bazalari” “Barkamol avlod” bolalar maktablarining “yosh sayyoh”, “yosh ekskursovod”, “yosh o‘lkashunos” to‘garak a‘zolari uchun o‘lkamiz tarixi, qadimiy va muqaddas qadamjolar, milliy urf-odatlarimiz bilan yaqindan tanishtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va asrash, bolalar o‘rtasida ekologiya hamda sayohat qilish madaniyatini yuksaltirish maqsadida tashkil etildi. Qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining maktabdan tashqari ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilab berildi.

yosh avlodni ma‘naviy barkamol etib tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta‘minlash, bunda ularning san‘at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishini oshirish hamda qizlarni ijtimoiy faol hayotga tayyorlashni tashkillashtirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash orqali bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallarni doimiy takomillashtirib borish;

robototexnika, mexatronika, muhandislik va kompyuter dasturiy ta'minoti yo'nalishlaridagi to'garaklarni doimiy rivojlantirib borish;

bolalar va ta'lim turizmlarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

o'quvchi yoshlarning ijodiy ishlarini ommalashtirish, shu jumladan dunyo bozoriga milliy an'analarimiz asosida «Barkamol avlod» bolalar maktablarining to'garak a'zolari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni olib chiqish maqsadida «Art shop» elektron do'konlarini tashkil etish va sotuvini yo'lga qo'yish;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga o'quvchilar qamrovini oshirish, o'quvchilar qiziqishlariga ko'ra to'garaklarni tashkil etish va doimiy faoliyat olib borishini ta'minlash;

bolalarda kasbni egallash bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, tarmoq to'garaklari faoliyatini metodik ta'minlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini zamonaviy ta'lim dasturlari orqali takomillashtirish;

etakchi tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda «Barkamol avlod» bolalar maktablarida robototexnika va texnik ijodiyot yo'nalishida foydalanadigan xom ashyolar ro'yxatini shakllantirish va yangilab borish;

bolalar texnik ijodkorligini rivojlantirish uchun xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari asosida «Barkamol avlod» bolalar maktablarida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida «Bolalar texnoparki» loyihalarini tashkil etish;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining bo'sh turgan bino va yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish .

“Barkamol avlod” bolalar maktablarida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab “STEAM – ta'lim” (Science - tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etilishi belgilandi.

Ushbu Qaror O'zbekiston Respublikasida maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qaror asosida belgilangan vazifalar zamonaviy talablar asosida, yangicha qarashlar bilan uyg'unlashdi. Jumladan, maktabdan tashqari ta'limga an'anaviy mashug'lot va to'garaklardan tashqari “STEAM – ta'lim”, sun'iy intellekt, AKT kabilarning joriy etilishi o'quvchilarni eng so'ngi texnologiyalar yangiliklaridan xabardor bo'lish va ularning imkoniyatlaridan to'la foydalana olishlari uchun zamin yaratdi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida xulosa qilib aytganda, maktabdan tashqari ta'lim – bu ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biridir. Maktabdan tashqari ta'lim quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida, kelajakda hayotda o'z yo'lini tanlashi va zarur mutaxassislik egasiga aylanishida maktab ta'limi bilan bir xil ahamiyatga egadir. Mashtabdan tashqari ta'lim tizimida

o'quvchi maktabda olgan bilimlarini mustahkamlash, o'z iqtidoriga qarab aqliy yoki jismoniy salohiyatini yuksaltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunga asosan jahon mamlakatlarida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maktabdan tashqari ta'lim tizimi o'quv jarayoniga kirib kela boshladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida bugungi kunda maktabdan tashqari ta'limga o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. O'z navbatida O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berila boshladi. Sohoni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi, ular bosqichma-bosqich rivojlantirilib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. Масъул муҳаррир: тарих фанлари доктори, профессор Д.А.Алимова. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2015. – Б. 3-4.
2. Олимжонов Х. Туркистон ўлка вилоятларида кутубхоналарнинг очилиши. Ўтмишга назар. 2021. №3. - Б.384.
3. Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими. XIX аср охири – XX аср бошлари. – Тошкент: Adib. 2014. – Б. 20.
4. Мустафоева Н. Туркистон жадидлари қарашларида таълим ва тарбия масалалари (XX аср 20-йиллар матбуоти асосида)) Ўзбекистон тарихининг долзарб муамаларига янги чизгилар. Даврий тўплам. №2. – Тошкент: Шарқ. 1999. – Б. 110.
5. Қаюмов Б.И. Ўзбекистонда мактабдан ташқари болалар тарбия муассасалари фаолиятининг педагогик асослари. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 1993. -Б. 9.
6. ЎзМА. Фонд – Ф- 94, рўйхат – 7, йиғма жилд – 107. 2, 6, 7, 9, 12-варқалар.
7. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги архиви. Фонд-5 , рўйхат-1, йиғма жилд-961, 12-варақ.
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.М. ҳарфи. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2003 йил. – Б. 117.
9. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.10.2019 й., 07/19/4467/3825-сон.